

**“Kapitalbank” ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi
tadbirkorlarga kompleks bank xizmati ko‘rsatish to‘g‘risida
kelishuvning
9-ILOVASI**

**So‘mdagi UZCARD EMV korporativ plastik kartasiga xizmat ko‘rsatish
TARTIBI**

I. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA‘RIFLAR:

1.1. Ushbu Tartibda qo‘yidagi atama va ta‘riflardan foydalaniladi:

Karta – Karta saqlovchisiga Karta hisobvarag‘i bo‘yicha bir necha marotaba transaksiya o‘tkazish imkoniyatini ta‘minlaydigan, Bank yoki O‘zbekiston Respublikasi tijorat banki tomonidan chiqarilgan, “UZCARD EMV” tizimining so‘mdagi mikroprotessorli plastik kartasi. Kartaning holati haqidagi joriy ma‘lumot YAUPMda aks etadi;

Karta Saqlovchisi - kartaning egasi vakolat bergan, Shartnomaga asosan Kartadan foydalanuvchi shaxs. Karta yakka tartibdagi tadbirkorga ochilgan bo‘lsa, nomiga karta ochilgan yakka tartibdagi tadbirkorgina faqat karta Saqlovchisi bo‘la oladi;

Karta hisobvarag‘i - undagi pul mablag‘laridan Karta vositasida foydalanish mumkin bo‘lgan Mijozning bank hisobvarag‘i;

Tartib - So‘mdagi UZCARD EMV korporativ plastik kartasiga xizmat ko‘rsatish tartibi. Ushbu tartib Bankning Saytida joylashtirilgan;

YAUPM –bank kartalarining dastlabki emissiyasini, transaksiyalarning avtorizatsiyasi, qayta ishlanishi va kliringini, “UZCARD” BTT doirasida banklar o‘rtasida o‘zaro axborot aloqasini va ularga bank kartalari bo‘yicha amalga oshirilgan banklararo transaksiyalarni tasdiqlash uchun ushbu transaksiyalar haqida ma‘lumotning yuborilishini ta‘minlovchi yagona umumrespublika protsessing markazi;

“UZCARD” BTT (Banklararo to‘lov tizimi) – huquqiy normalarning, normativ hujjatlarning, dasturiy-texnik qarorlarning va naqd pulsiz hisob-kitoblarni elektron shaklda amalga oshirishga mo‘ljallangan hamda karta emissiya qiluvchi, tovar/ishlar/xizmatlarni sotuvchilariga xizmat ko‘rsatuvchi, hisob-kitob qiluvchi banklarni va YAUPMni birlashtiruvchi tegishli tashkiliy-texnik infratuzilmaning yig‘indisiga asoslangan hududiy taqsimlangan to‘lov tizimi;

Avtorizatsiya – UZCARD EMV tizimi texnologiyasiga asosan telefon, elektron va boshqa aloqa vositasida Kartadan foydalanib operatsiya amalga oshirishga karta emitentining ruxsatini olish jarayoni;

Hisob-kitob banki – “UZCARD” BTTda o‘zaro hisob-kitoblar o‘tkazilishini ta‘minlovchi, hisob-kitob organi funksiyalarini bajaruvchi bank;

Emitent - bank kartalari emissiyasini amalga oshiruvchi, o‘zi emissiya qilgan bank kartalariga mulk huquqiga ega bo‘lgan va ularning saqlovchilari va ekvayer banklar oldida ular tomonidan bank kartalaridan foydalanilgan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish huquqlari bo‘yicha o‘z nomidan majburiyatlarni zimmasiga olgan bank;

Ekvayer – SXX bilan transaksiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni o‘tkazuvchi bank;

SXX (savdo-xizmat ko‘rsatish korxonasi) - Ekvayer bilan tuzilgan shartnomaga asosan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni Karta orqali realizatsiya qiluvchi xo‘jalik yurituvchi subyekt (yuridik shaxs yoki yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs);

E-POS terminal – SXX tovarlari/ishlari/xizmatlari uchun karta orqali to‘lovlarni qabul qilishga va amalga oshirilgan transaksiyalar bo‘yicha real vaqt rejimida YAUPMdan cheklarni shakllantirishga mo‘ljallangan elektron qurilma;

O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish Terminali – xizmatlarga to‘lov qilish uchun naqd pul mablag‘larini qabul qilish (infokiosk) funksiyasi va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish rejimida naqd pul mablag‘larini olish (bankomat) opsional funksiyasi bilan jihozlangan, xizmatlar uchun Karta orqali to‘lovlarni qabul qiluvchi elektron qurilma;

E-POS terminal – SXX tovarlari (ishlar,xizmatlar) uchun karta orqali to‘lovlarni qabul qilishga va amalga oshirilgan transaksiyalar bo‘yicha real vaqt rejimida YAUPMdan elektron cheklarni shakllantirishga mo‘ljallangan virtual terminal;

Slip (Elektron chek) – transaksiyaning karta orqali amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hamda transaksiya summasi, transaksiya turi, transaksiya amalga oshgan sana haqidagi ma'lumotni, shuningdek, kartani va ushbu Slipni (elektron chekni) shakllantirgan terminalni identifikatsiya qilishga imkon beradigan ma'lumotni o'z ichiga olgan POS-terminalning, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish Terminalining, E-POS terminalning kvitansiyasi;

Transaksiya – tovarlar(ishlar,xizmatlar) haqini to'lash uchun karta orqali amalga oshiriladigan to'lov. Transaksiya karta Saqlovchisi tomonidan PIN-kod, dinamik parol, bank kartasi raqami va internet to'lovlari xavfsizligining boshqa belgilari (operatsiyalar internet yoki USSD orqali amalga oshirilganda) yordamida tasdiqlanadi;

Mijozning vakolatli vakili – Mijozning rahbari, bosh buxgalteri yoki Karta saqlovchisi;

Reversal – kommunikatsion xatoliklar (aloqadagi uzilishlar) sodir bo'lganda Kartochka bo'yicha POS terminaldagi/o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish Terminalidagi transaksiyani bekor qilish. Haqiqiy transaksiya amalga oshirilganda slipda ushbu transaksiya xato o'tkazilganligi haqida ma'lumot ko'rsatiladi;

To'lovni qaytarish – Karta Saqovchisining Karta orqali sotib olgan tovarlar(ishlar,xizmatlar)dan voz kechishi oqibatida SXX tomonidan tasdiqlangan va SXX tomonidan Bank belgilagan shaklda karta Saqlovchisining hisobvarag'iga kirim qilish uchun pul mablag'larini qaytarish. To'lovni qaytarish naqd pul shaklda amalga oshirilishi mumkin emas

Stop list – kartani yo'qotilishi (o'g'irlanishi va boshq.) natijasida karta Saqlovchisi tomonidan Bankka rasmiy murojaat qilingandan so'ng Bank tomonidan Transaksiyalar amalga oshirilishi ta'qiqlangan Kartalar ro'yxati. Mijoz Kartani Stop list ro'yxatiga qo'yish uchun Bank belgilagan qoidalarga asosan ariza beradi;

Bank Yo'riqnomalari – Kartadan va boshqa qurilmadan foydalanish jarayonlari hamda qoidalarini tushuntiruvchi hujjatlar, ularga asosan Bank Mijozga Karta bo'yicha xizmat ko'rsatadi. Bank Yo'riqnomalariga rioya qilish Taraflar uchun majburiy hisoblanadi. Bank Yo'riqnomalari Bankning Saytida joylashtirilgan;

PIN-kod – Karta hisobvarag'ida hisobda turgan pul mablag'larini tasarruf qilish huquqini tasdiqlovchi, shuningdek, Kartada saqlanadigan ma'lumotlarga uchinchi shaxslarning kirishini cheklovchi Kartaning shaxsiy indentifikatsion raqami. Pin-kod maxfiy ma'lumot hisoblanadi va sir saqlanishi lozim. PIN-kodni saqlash bo'yicha javobgarlik karta Saqlovchisi zimmasida bo'ladi.

1.2. Ushbu Tartibda foydalaniladigan atama va ta'riflar Kelishuvdagi mazmun bilan bir xil mazmunga ega.

II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Mazkur Tartib, Kelishuv, Tariflar, shuningdek Mijoz tomonidan lozim darajada to'ldirilgan va imzolangan Ariza, birgalikda Mijoz va Bank o'rtasida so'mdagi UZCARD EMV korporativ plastik kartasiga xizmat ko'rsatish shartnomasi (keyingi o'rinlarda – "Shartnoma") orqali tuzilgan hisoblanadi.

2.2 Kartani olish uchun Mijoz Bankda so'mdagi asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqa ega bo'lishi lozim.

2.3. Bank Ariza topshirilgan kundan 3 (uch) bank kunida Mijozga Karta hisobvarag'i ochadi, Kartani tayyorlaydi va uni Mijozning vakolatli vakiliga topshiradi.

2.4. Mijoz va karta Saqlovchisining munosabatlari ichki tartib va Mijoz qoidalari bilan tartibga solinadi.

2.5. Karta unda ko'rsatilgan tegishli yilning oxirgi oyigacha amal qiladi. Karta amal qilish muddati tugaganidan so'ng, shuningdek, almashtirilganda yoki Bankning talabi bilan Bankka qaytarilishi kerak. Mijoz Kartadan Amaldagi qonunchilikka asosan O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitoblarda foydalanadi.

2.6. Karta Mijozning yozma arizasiga asosan yopiladi.

2.7. Bank Karta yo'qotilganligi (o'g'irlanganligi va h.k) haqidagi ariza topshirilgan kundan 3 (uch) bank kuni ichida yo'qolgan (o'g'irlangan va h.k) kartani almashtirib beradi.

2.8. Shartnoma bo'yicha barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida(so'mda) amalga oshiriladi.

2.9. Mijoz tomonidan berilgan Ariza Mijoz Yo'riqnomalar bilan tanishganligini va u bilan rozi ekanligini tasdiqlaydi.

III. XIZMATLAR UCHUN TO'LOV MIQDORI VA ULARNI TO'LASH TARTIBI

3.1. Bank Karta hisobvarag'iga mablag'lar kirim qilinganda Mijozdan ushbu Tartibning ajralmas qismi hisoblangan Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi undiradi

3.2. Mijozning Karta hisobvarag'ida mavjud qoldiq pul mablag'lariga foizlar hisoblanmaydi.

IV. TARAFLARNING MAJBURIYATI

4.1. Bankning majburiyatlari:

4.1.1. Mijozning karta hisobvarag'ini Karta yordamida amalga oshirilgan, Karta hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'ini kamaytiradigan barcha Transaksiyalar summasiga debetlash;

4.1.2. Mijozning asosiy hisobvarag'idan naqd pulsiz shaklda kelib tushadigan pul mablag'larini Mijozning karta hisobvarag'iga kirim qilish;

4.1.3. Mijozning arizasiga asosan amaldagi Tariflarga muvofiq Karta hisobvarag'idan ko'chirma berish;

4.1.4. Mijoz kartaning yo'qotilganligi (o'g'irlanganligi va h.k) haqida ariza bergandan keyin Karta bo'yicha xizmat ko'rsatishni to'xtatish va uni blok qilish hamda Stop list ro'yxatiga kiritish;

4.1.5. Karta Saqlovchisiga/mijozga Kartadan foydalanish masalalari hamda Yo'riqnomalar va Bank Tariflarida nazarda tutilgan hisob-kitob texnologiyalari bo'yicha maslahatlar berish;

4.1.6. Yo'riqnomalar o'zgarganida ushbu o'zgarishlar amalga kiritilgunga qadar kamida 5 (besh) bank kuni oldin Mijozga OAVda, shuningdek, Bankning tanlovi bo'yicha har qanday usullarda ma'lum qilish;

4.1.7. Shartnoma bekor qilinganidan so'ng Karta hisobvarag'ida mavjud pul mablag'lari qoldig'ini Karta bo'yicha oldin amalga oshirilgan Transaksiyalar bo'yicha barcha hisob-kitoblar o'tkazilganidan keyin Mijozning asosiy hisobvarag'iga qaytarish.

4.2. Mijozning majburiyatlari:

4.2.1. Shartnoma shartlarini va Bank Yo'riqnomalarini mustaqil bajarish va Karta saqlovchisi tomonidan ularning bajarilishini ta'minlash;

4.2.2. Karta Saqlovchisini Shartnoma shartlari va Bank Yo'riqnomalari bilan tanishtirish;

4.2.3. Kartadan Karta hisobvarag'idagi qoldiq pul mablag'lari doirasida va Kartaning amal qilish muddati mobaynida foydalanish;

4.2.4. PIN-kodni Mijozning moliyaviy va tijorat siri hisoblangan har qanday ma'lumotlarning sir saqlash darajasida sir saqlash, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

4.2.5. Vositachilik haqini amaldagi Tariflarga asosan to'lash;

4.2.6. Mijoz va karta Saqlovchisi tomonidan Shartnomani buzish bilan bog'liq xarajatlarni to'lash, shuningdek, Shartnoma shartlari va Bank Yo'riqnomalariga rioya etmaslik natijasida kelib chiqqan Bankning yo'qotishlarini va/yoki zararlarini qoplab berish;

4.2.7. Kartaning yo'qolganligi (o'g'irlanganligi va h.k) haqida (+998 71) 200 – 15 – 15 telefon raqami orqali Bankka darhol xabar berish. Og'zaki xabar berilgandan keyin bir ish kunida Kartaning yo'qolganligi (o'g'irlanganligi va h.k) haqida arizani Bankka taqdim qilish;

4.2.8. Shartnoma bekor qilinganidan keyin kartani ishlaydigan holatda Bankka qaytarish va Karta hisobvarag'ini yopiish. Karta yo'qolganligi (o'g'irlanganligi va h.k) natijasida uni qaytarishning imkoni bo'lmasa, amaldagi Bank Tariflariga asosan vositachilik haqini to'lash;

4.2.9. Rekvizitlarining o'zgarganligi haqida bunda o'zgarishlar bo'lgandan keyin 5 (besh) bank kuni ichida Bankni xabardor qilish;

4.2.10. Bank yopilganida va uning faoliyati to'xtatilganida, shuningdek, Bankning birinchi talabi bilan Kartani qaytarib berish;

4.2.11. Muntazam ravishda (haftasiga kamida bir marta), mustaqil ravishda yoki ishonchli shaxslar orqali, Shartnomaga va/yoki Tariflarga kiritiladigan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar to'g'risida ma'lumot mavjudligini tekshirish maqsadida Saytga kirish.

4.3. Taraflar maxfiylikka rioya qilishlari va ikkinchi tarafning yozma roziligisiz ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari shart, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

4.4. Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

V. TARAFLARNING HUQUQI

5.1. Bankning huquqlari:

5.1.1. Yo'riqnomalarni bir tomonlama o'zgartirish;

5.1.2. zarurat tug'ilganida Kartani berishni talab qilish, shuningdek, taxminiy olib qo'yish sanasidan kamida 3 (uch) kun oldin ogohlantirib Mijozdan Kartani olib qo'yish;

5.1.3. Quyidagi hollarda Kartani vaqtincha bloklash:

- Mijozning asosiy hisobvarag'i 2-Kartotekada bo'lsa. Mijozning so'mdagi asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida pul mablag'lari yetarli bo'lmaganda, 2-Kartoteka bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish maqsadida Karta hisobvarag'idan pul mablag'larini o'chirish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi;

- Mijoz bunga Bank belgilagan shaklda topshiriq bergan bo'lsa;

- Mijoz yoki Karta Saqlovchisi tomonidan Shartnoma shartlari va Bank Yo'riqnomalari buzilganda;

- talab qilib olinguncha asosiy hisobvaraq O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda bloklangan bo'lsa;

- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan vakolatli organlar tomonidan bunga topshiriq berilgan bo‘lsa;

5.1.4. Mijozdan Bankka qarzdorlik summalarini va Mijoz hamda karta Saqlovchisi tomonidan Shartnoma shartlari va Bank Yo‘riqnomalarini buzilishi bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lashni talab qilish;

5.1.5. Quyidagi hollarda Mijozning roziligisiz pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni muzlatish va/yoki to‘xtatib turish (pul mablag‘larini kirim qilish bo‘yicha operatsiyalar bundan mustasno):

5.1.5.1. amaldagi qonunchilikka asosan shaxslar terrorchilik faoliyati yoki ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishda qatnashayotgan yoki qatnashishda gumon qilinayotgan shaxslar ro‘yxatiga (keyingi o‘rinlarda “shaxslar ro‘yxati” deyiladi) kirs,

5.1.5.2. uning qatnashchilaridan biri shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan shaxs nomidan va uning topshirig‘i asosida harakat qilayotgan bo‘lsa;

5.1.5.3. operatsiya o‘tkazish uchun foydalaniladigan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan shaxsga to‘liq yoki qisman tegishli bo‘lsa;

5.1.5.4. operatsiya qatnashchisi – yuridik shaxs shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan jismoniy yoki yuridik shaxsning mulkida yoki nazorati ostida bo‘lsa;

5.2. Mijozning huquqlari:

5.2.1. Karta hisobvarag‘i qoldig‘ini o‘zining asosiy hisobvarag‘idan pul mablag‘larini ko‘chirish orqali to‘ldirish;

5.2.2. Karta ushbu Tartibning 4.13. bandiga asosan, shuningdek, Bank Yo‘riqnomalarida ko‘rsatilgan boshqa harakatlar natijasida vaqtincha bloklanganda Kartani avtorizatsiya qilish;

5.2.3. Kartani olishda PIN-kodni o‘rnatish orqali Kartani mustaqil aktivatsiya qilish;

5.2.4. Karta bo‘yicha amalga oshirilgan Transaksiyalar va Karta hisobvarag‘i to‘g‘risida ko‘chirma olish;

5.2.5. PIN-kodni POS-terminallar yoki o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish Terminallari vositasida almashtirish;

5.2.6. Bankning Tariflarga o‘zgartirish va/yoki qo‘shimcha kiritish haqidagi takliflariga rozi bo‘lmaganda Shartnomani bekor qilishni talab qilish.

5.3. Taraflar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

VI. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kelishuv va ushbu Tartibga asosan javobgar bo‘ladi.

6.2. Mijoz Kartani yo‘qotilganligi (o‘g‘irlanganligi va h.k) haqida ariza bergunga qadar Kartadan Uchinchi shaxslar foydalangan bo‘lsa, Bank har qanday moliyaviy yo‘qotishlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

6.3. Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik uni bekor qilish uchun asos bo‘ladi, bunda shartnomani bekor qilish payti Taraflar tomonidan alohida tartibda kelishiladi.

6.4. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan Karta orqali amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi uchun Mijoz javobgar bo‘ladi.

VII. YAKUNIY QOIDALAR

7.1. Shartnoma Ariza va Ro‘yxat berilgan vaqtdan kuchga kiradi, Taraflardan biri Bankka taqdim qilinadigan hisobvaraqni yopish to‘g‘risidagi Arizaga asosan uni bekor qilish istagini bildirmagunicha muddatsiz bo‘ladi.

7.2. Shartnoma Taraflardan birining tashabbusiga ko‘ra ikkinchi Tarafni shartnomani bekor qilishning taxminiy sanasidan 10 (o‘n) bank kuni oldin ogohlantirish sharti bilan bekor qilinishi mumkin, agar:

- Karta Bankka ishlaydigan holatda qaytarilgan bo‘lsa;

- Mijoz barcha majburiyatlarni bajargan va Bank oldida Shartnoma bo‘yicha qarzorligi bo‘lmasa;

- Mijoz Bankka karta hisobvarag‘idan so‘mdagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga pul mablag‘larini qaytarish haqida to‘lov topshiriqnomasi bergan bo‘lsa;

- Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

7.3. Shartnoma bekor qilinganida yoki to‘xtatilganida Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi to‘lovlari Mijozga qaytarilmaydi.

7.4. Shartnoma bilan bog‘liq nizolar taraflar tomonidan muzokara yo‘li bilan o‘zaro hal qilinadi. Nizolarni muzokara qo‘li bilan hal qilishning imkoniyati bo‘lmagan hollarda, nizolar Kelishuvda belgilangan tartibda hal etiladi.

7.5. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan Bank va Mijoz o‘rtasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Kelishuv bilan tartibga solinadi.

**Soʻmdagi UZCARD EMV korporativ plastik kartasiga xizmat
koʻrsatish Tartibiga
1-Ilova**

Tasdiqlayman
“Kapitalbank” ATB _____
Boshqaruvchisi _____

**Soʻmdagi UZCARDEMVA korporativ plastik kartasini chiqarishga
AIZA**

Mijoz nomidan _____ Yuridik shaxs/YATT ning nomni koʻrsating _____

Rahbarning F.I.Sh va lavozimi

Soʻmdagi UZCARDEMVA plastik kartasini chiqarishingizni soʻraymiz asosiy karta qoʻshimcha karta

MIJONING REKVIZITLARI:

Yuridik manzili: _____ Yuridik manzilni koʻrsating _____

Pochta manzili: _____ Pochta manzilini koʻrsating _____

Aloqa telefonlari: _____ E-mail: _____

Mijozning holati: - rezident, - norezident

BANK REKVIZITLARI:

Hisobvaraqlar: _____ MFO: _____

INN: _____ OKONX: _____

Bank nomi: _____

Bosh buxgalter: _____ Bosh buxgalter F.I.Sh. (agar u boʻlsa)

KARTA BILAN OPERATSIYA AMALGA OSHIRISHGA MAʼSUL XODIM:

F.I.Sh. _____

Lavozimi: _____

Pasport maʼlumotlari:

Seriya: _____ Raqami: _____ Kim tomonidan berilgan: _____

Berilgan vaqti: _____

NAZORAT SOʻZI:

Bank xodimlari kartangizga xizmat koʻrsatish masalalari boʻyicha telefon soʻzlashuvlarida Sizni identifikatsiya qilishi mumkin boʻlgan nazorat soʻzini koʻrsating: _____

NAZORAT MAʼLUMOTLARI

Ushbu Arizada koʻrsatilgan maʼlumotlarning haqiqiylikini tasdiqlaymiz.

Bank:

- Ushbu Arizada koʻrsatilgan maʼlumotlarni tekshirishga huquqi borligiga
- Bankning reklama-maʼlumotlarini joʻnatish uchun ushbu Arizada koʻrsatilgan maʼlumotlardan foydalanishi mumkinligiga
- Sababini tushuntirmasdan plastik kartochka chiqarishni rad qilish huquqi mavjudligiga

rozilgimizni bildiramiz.

Bank Tariflari va Yoʻriqnomalari bilan tanishdik va ularni bajarish majburiyatini olamiz.


Rahbarning imzosi: _____

M.Oʻ _____

Sana: _____

BANKNING XIZMAT BELGILARI

Xizmat harakati/qarori/belgilari	Xodimning F.I.Sh.	Imzo
Arizani qabul qildi		_____

Kelishildi		
------------	--	---



